SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

# SURXONDARYO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



***Dastlabki ma'lumot***
*2025- yil yanvar-fevral*

***Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi boshqarmasi***
*Тел.* ***55-451-80-00***

# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

1

**Statistik ma’lumotlar** jamiyatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma’lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to‘g‘ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko‘rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko‘rsatkichi shular jumlasidan.

**Chakana savdo aylanmasi asosiy ko‘rsatkichlari o‘sish sur’atlari** (*2025- yil yanvar-fevral oyi, foizda*)




2025- yil 1- mart holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalari soni 4 909 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 72 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 4 837 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig‘ilgan ma’lumotlar, chakana savdo ko‘rsatgichlariga kiritilgan.

**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste’mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko‘p bo‘lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

# YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI



## Chakana savdo tovar aylanmasi va o‘sish sur’ati dinamikasi *(yanvar-fevral, mlrd so‘mda)*




So‘nggi 5 yillik (2021- 2025- yillar)da chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o‘sish sur’ati 2025- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2024- yilning mos davriga nisbatan 109,7 % ni tashkil qildi.

## Chakana savdo tovar aylanmasining o‘sish sur’atlari, oylar kesimida

(*2024- 2025- yillar*)




2025- yilning yanvar-fevral oyida o‘sish sur’ati **109,7** % ni tashkil qildi.

Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2025- yilning yanvar-fevral oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 3 835,3 mlrd so‘mni tashkil etib, 2024-yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 109,7 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 142,1 mlrd so‘mni (o‘sish sur’ati 124,1 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 3 693,2 mlrd so‘mni (o‘sish sur’ati 109,2 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 460,1 mlrd so‘mni (o‘sish sur’ati 116,2 %) tashkil etdi.

**Hududlar bo‘yicha chakana savdo hajmi va o‘sish sur’atlari**

(*2025- yil yanvar-fevral oylari*)

| | **Jami, mlrd so‘m** | **2024- yil yanvar-fevral oyiga nisbatan, *foizda*** |
|---|---|---|
| **Surxondaryo viloyati** | **3 835,3** | **109,7** |
| Termiz sh. | 661,4 | 109,1 |
| *tumanlar:* | | |
| Oltinsoy | 140,2 | 109,6 |
| Angor | 170,8 | 109,0 |
| Bandixon | 57,2 | 107,4 |
| Boysun | 152,5 | 108,2 |
| Muzrabot | 162,4 | 108,5 |
| Denov | 872,1 | 111,5 |
| Jarqo‘rg‘on | 196,6 | 108,8 |
| Qumqo‘rg‘on | 162,8 | 109,0 |
| Qiziriq | 157,5 | 108,1 |
| Sariosiyo | 141,8 | 107,8 |
| Termiz | 83,3 | 113,3 |
| Uzun | 169,2 | 112,6 |
| Sherobod | 234,0 | 108,9 |
| Sho‘rchi | 363,4 | 107,6 |

2025- yilning yanvar-fevral oyida 2024- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan viloyatning Termiz (113,3 %), Uzun (112,6 %) va Denov (111,5 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o‘sish sur’atlari qayd etildi.

## Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

*(Ulushi, foizda)*




Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Denov tumani 23,4 % bilan 872,1 mlrd so‘mni tashkil tdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Bandixon tumani 1,5 % bilan 57,2 mlrd so‘mni tashkil etdi.

2024- yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o‘sish kuzatildi.







## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o‘sish sur’atiga ega hududlar *(foizda)*

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2025-yilning yanvar-fevral oylarida statistik hisob-kitoblarga ko‘ra, 3 693,2 mlrd so‘mni tashkil etib, 2024-yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 9,2 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 96,3 % ni tashkil etdi.




## Yirik korxonalarning eng yuqori o‘sish sur’atiga ega hududlar *(foizda)*

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2024- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 24,1 % ga oshdi va 142,1 mlrd so‘mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 3,7 % ulushiga to‘g‘ri keldi.





## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, *(foizda)*




Tahliliy natijalarga ko‘ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo‘yicha Boysun (99,4 %), Qiziriq (99,2 %) va Muzrabot (99,1 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 3,7 % ni tashkil etib, eng katta ulush Termiz sh (6,5 %), Denov (4,9 %), Angor (3,5 %) va Jarqo‘rg‘on (2,9 %) tumanlarida kuzatildi.






## AHOLI JON BOSHIGA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

(Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda)*

| | |
|---|---|
| Termiz sh | 3 234,2 |
| Oltinsoy | 719,1 |
| Angor | 1 175,0 |
| Bandixon | 679,8 |
| Boysun | 1 212,1 |
| Muzrabot | 1 046,3 |
| Denov | 2 050,6 |
| Jarqo'rg'on | 815,0 |
| Qumqo'rg'on | 629,5 |
| Qiziriq | 1 255,3 |
| Sariosiyo | 615,0 |
| Termiz | 969,2 |
| Uzun | 889,9 |
| Sherobod | 1 099,8 |
| Sho'rchi | 1 570,4 |

2025- yilning yanvar-fevral oylari holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 1 317,4 ming. so'mni (2024-yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 107,1 %) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Termiz shahri (3 234,2 ming. so'm), Denov 2 050,6 ming. so'm) va Sho'rchi (1 570,4 ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko‘rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo‘jaligida o‘z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o‘sish sur’atlari** (2025- yil yanvar-fevral), *foizda*



**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o‘rinlari, turg‘un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo hajmi va o‘sish sur’atlari**
(2025- yil yanvar-fevral)

| | **Jami, mlrd. so‘m** | **2024- yil yanvar-fevralga nisbatan, foizda** |
|---|---|---|
| Surxondaryo viloyati | **864,2** | **116,2** |
| Termiz sh. | 66,0 | 106,4 |
| *tumanlar:* | | |
| Oltinsoy | 68,9 | 126,5 |
| Angor | 21,5 | 81,1 |
| Bandixon | 39,2 | 104,2 |
| Boysun | 69,9 | 139,8 |
| Muzrabot | 75,6 | 111,7 |
| Denov | 117,0 | 147,5 |
| Jarqo‘rg‘on | 45,1 | 110,7 |
| Qumqo‘rg‘on | 50,4 | 113,1 |
| Qiziriq | 58,4 | 110,9 |
| Sariosiyo | 52,0 | 100,4 |
| Termiz | 35,6 | 145,7 |
| Uzun | 82,7 | 156,8 |
| Sherobod | 22,9 | 55,6 |
| Sho‘rchi | 59,0 | 101,4 |

*qo‘shmagan holatda;*

*– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo‘jaligida o‘z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.*

## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o‘sish sur’atlari, foizda
(2025- yil yanvar-fevral)




## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, *mlrd so‘m*
*(2025- yil yanvar-fevral)*




Viloyat bo‘yicha 2025- yilning yanvar-fevral oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 864,2 mlrd so‘mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 116,2 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma’lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo‘jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 373,9mlrd so‘mni (125,0 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylan-masi hajmi 490,3 mlrd so‘mni tashkil etdi (110, %).

2025-yilning yanvar-fevral oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi 373,9 mlrd so‘mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga ( 207,6 mlrd.so‘m) to‘g‘ri keldi.

## Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

**Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari**

**207,6**
***mlrd so‘m***



55,5 %

**Non va non mahsulotlari**

**33,1**
**mlrd so‘m**



8,9 %

**Don mahsulotlari** (mosh, loviya, guruch va boshqalar)

**33,9**
**mlrd so‘m**



9,1 %

**Tovuq go‘shti**

**9,2**
**mlrd so‘m**



2,5 %

**Quritilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari** (yongoq, bodom, pista va boshqalar)

**18,2**
**mlrd so‘m**



4,9 %

**Tuxum**

**11,4**
**mlrd so‘m**



3,0 %

**Ziravorlar**

**7,3**
**mlrd so‘m**



2,0 %

**Sut va sut mahsulotlari**

**9,9**
**mlrd so‘m**



2,6 %

**Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak**

**3,1**
**mlrd so‘m**



0,8%

**Tuzlamalar**

**9,1**
**mlrd so‘m**



2,4 %

**Gullar, o‘simlik va nihol ko‘chatlari**

**6,1**
**mlrd so‘m**



1,6%

**Nooziq-ovqat tovarlar**

**25,0**
**mlrd so‘m**

6,7 %

2025- yilning yanvar-fevral oyida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi 490,3 mlrd so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 373,1 mlrd.so‘m, qo‘y va echkilar – 113,2 mlrd so‘mni, otlar – 3,0 mlrd so‘mni, parrandalar – 1,0 mlrd so‘mni tashkil qildi.

## Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari va parrandalar savdosi hajmi va ulushi

| Turi | Hajmi | Ulushi |
|---|---|---|
| 2 yoshdan katta bo‘lgan qoramollar | 235,7 mlrd so‘m | 48,1 % |
| 1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar | 81,4 mlrd so‘m | 16,6 % |
| 1 yoshgacaha bo‘lgan yosh mollar | 56,0 mlrd so‘m | 11,4 % |
| Qo‘ylar | 93,4 mlrd so‘m | 19,1% |
| Otlar | 3,0 mlrd so‘m | 0,6 % |
| Echkilar | 19,8 mlrd so‘m | 4,0 % |
| Kurka, o‘rdak, g‘oz | 0,4 mlrd so‘m | 0,1 % |
| Tovuqlar | 0,4 mlrd so‘m | 0,1 % |
| Quyonlar | 0,2 mlrd so‘m | 0,0 % |
| Qushlar | mlrd so‘m | % |



# UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2025- yil 1- mart holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 471 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 470 tani tashkil qildi.

**Hududlar kesimida umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi va o‘sish sur’atlari** (2025- yil yanvar-fevral)

| | Jami mlrd so‘m | 2024- yil yanvar-fevral oyiga nisbatan, *foizda* |
|---|---|---|
| Surxondaryo viloyati | **1 216,1** | **111,8** |
| Termiz sh. | 34,9 | 107,1 |
| *tumanlar:* | | |
| Oltinsoy | 2,6 | 114,0 |
| Angor | 2,8 | 108,5 |
| Bandixon | 1,0 | 119,6 |
| Boysun | 2,3 | 110,3 |
| Muzrabot | 2,5 | 115,7 |
| Denov | 15,0 | 105,7 |
| Jarqo‘rg‘on | 4,5 | 101,6 |
| Qumqo‘rg‘on | 2,3 | 106,9 |
| Qiziriq | 1,6 | 105,5 |
| Sariosiyo | 5,0 | 118,3 |
| Termiz | 6,8 | 108,2 |
| Uzun | 2,8 | 110,9 |
| Sherobod | 4,5 | 114,9 |
| Sho‘rchi | 3,9 | 116,5 |

2025- yilning yanvar-fevral oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 1 216,1 mlrd so‘mga yetdi. 2024-yilning mos davriga nisbatan 11,8 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 99,8 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri keldi..

# Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

(jismoniy shaxslar hisobga olinmagan holda)

| | **Hajmi,** mlrd so‘m | **Ulushi,** *foizda* |
|---|---|---|
| Surxondaryo viloyati | **253,9** | **100,0** |
| Termiz sh. | 116,3 | 45,8 |
| tumanlar: | | |
| Oltinsoy | 0,7 | 0,3 |
| Angor | 5,4 | 2,1 |
| Bandixon | 0,3 | 0,1 |
| Boysun | 0,6 | 0,3 |
| Muzrabot | 0,3 | 0,1 |
| Denov | 98,8 | 38,9 |
| Jarqo‘rg‘on | 12,7 | 5,0 |
| Qumqo‘rg‘on | 3,7 | 1,5 |
| Qiziriq | 2,3 | 0,9 |
| Sariosiyo | 1,1 | 0,4 |
| Termiz | 4,3 | 1,7 |
| Uzun | 0,2 | 0,1 |
| Sherobod | 1,5 | 0,6 |
| Sho‘rchi | 5,7 | 2,2 |

Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Denov tumani (116,3 mlrd so‘m) va Termiz shahri (98,8 mlrd so‘m) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. *(mlrd so'm)*




2025- yilning yanvar-fevral oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari)* 253,9 mlrd so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 58,3 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 100,5 mlrd so'm (o'sish sur'ati – 320,2 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 153,4 mlrd so'mni (o'sish sur'ati –118,9 %) tashkil qildi.

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'atlari, *foizda*



**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o'z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o'zgartirmagan holda jo'natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to'lanadigan yoki to'lanmaganligidan qat'i nazar qiymati.

**Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi,**
*mlrd so'mda*




Viloyat bo'yicha 2025-yilning yanvar-fevral-yanvar-fevral oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 1 423,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 9,4 % ga o'sdi.

## Savdo aylanmasi va ulushi




Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 1 374,1 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 111,4 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 96,5 % ni tashkil qildi.

## Ulgurji savdo aylanmasi hajmi va o‘sish sur’atlari
*(2025- yil yanvar-fevral)*

| | Jami mlrd so‘m | 2024- yil yanvar-fevral oyiga nisbatan, *foizda* |
|---|---|---|
| **Surxondaryo viloyati** | **1 423,4** | **109,4** |
| Termiz sh. | 191,2 | 93,6 |
| *tumanlar:* | | |
| Oltinsoy | 27,3 | 109,4 |
| Angor | 21,6 | 104,4 |
| Bandixon | 67,3 | 107,7 |
| Boysun | 4,6 | 114,3 |
| Muzrabot | 77,1 | 125,4 |
| Denov | 307,9 | 115,1 |
| Jarqo‘rg‘on | 26,1 | 107,0 |
| Qumqo‘rg‘on | 21 | 108,1 |
| Qiziriq | 6,6 | 107,7 |
| Sariosiyo | 21,7 | 108,5 |
| Termiz | 57,1 | 107,7 |
| Uzun | 10,2 | 106,6 |
| Sherobod | 51,4 | 107,7 |
| Sho‘rchi | 45,7 | 107,3 |

2025- yil 1- mart holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 236 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 16 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 220 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘sish sur’atlariga ega eng yirik korxonalar Denov ( 581,0 %) , Qumqo‘rg‘on (291,8 % ) va Boysun (237,8 % ) tumanlarida kuzatildi.